Turdiyeva Sevara Farxodovna
mustaqil izlanuvchi

BARKAMOL SHAXSNI TARBIYALASHDA MILLIY MA'NAVIYATNING O'RNI: MUAMMO VA YECHIMLAR

Annotatsiya: Maqolada barkamol shaxsni tarbiyalashning innovatsion yo'llari asoslantirilgan bo'lib, bunda milliy ma'naviyat masalasi va unda mavjud bo'lgan muammolar va yechimlar o'z ifodasini topgan. Shuningdek, barkamol shaxs tarbiyasida oilaviy munosabatlar hamda farzand tarbiyalashda ulug' allomalarimizning fikr va mulohazalari o'z mualliflik fikrlarimiz bilan tahlil qilib berildi.
Kalit so'zlar: Jamiyat, O'zbek, Globallashuv, Oila, Barkamol shaxs, Bola xulqi, Bola tarbiyasi.

O'zbekiston tarixan uzoq o'tmishdan shakllanib rivojlanib kelgan davlatlar sirasiga kiradi. Bu borada siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy va ma'naviy sohalarni rivojlanishi va unda etnik birliklar o'rni benihoyat muhim ahamiyat kasb etib kelgan. Jamiyat rivojlanishi albatta ilm-fan taraqqiyoti va uni jahon elitasi darajasiga ko'traolgan ziyolilari, allomlari va ulug' mutafakkirlari bilan bog'liqdir. Aynan biz istiqomat qilayotgan "yurt" bir paytlar insoniyat tamaddunining kindigi, beshigi bo'lgan. Biz deyarli 4 ming yildan beri yurtimizdagi asori-atiqalar, ma'naviy meros, ulug' allomalar va boy qadriyatlarimiz bilan faxrlanamiz, g'ururlanamiz. Lekin hozir og'zimizni to'ldirib "faxrlanish, g'ururlanish" kabi balandparvoz so'zlar bilan o'zimizni ovutishimiz kerak emas, aksincha biz jahonda qachon o'z o'rnimizga ega bo'lamiz, qachon milliy brendlarmiz (mahsulot) jahon bozorlarida "O'zbek" degan shtrixkodlarda aks etadi, qachon O'zbek degan nom ostida shuhrat qozonamiz degan o'y bilan, xayol bilan intilish bilan yashamog'imiz lozim. Binobarin tarixi va o'tmishi ulug' bo'lgan xalqni to'xtatib bo'lmaydi. Biz ana shunda ulug' tarixga va o'tmishga ega xalqlardan va millatlardan birimiz. Bu ulug'likni yanada "rivojlantiradigan, taraqqiy ettiradigan" bizda ajoyib yoshlar bor, milliy tarix bor, milliy ma'naviyat bor.

Aynan brkamol shaxs tarbiyasida ta'lim-tarbiya, ilm-ma'rifat muhim o'rin tutadi. Bu borada O'zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti Islom Karimov o'zining "Yuksak ma'naviyat-yengilmas kuch" asarida maktab va o'qituvchining jamiyat taraqqiyotidagi hissasini ta'riflab "...maktab degan ulug' dargohning inson va jamiyat taraqqiyotidagi hissasi va ta'sirini, nafaqat yoshlarimiz, balki butun xalqimiz kelajagini hal qiladigan o'qituvchi va murabbiylar mehnatini hech narsa bilan o'lchab, qiyoslab bo'lmaydi"-deb ta'kidlaydi.

Ma'lumki, hozirgi davrda globallashuv jarayoni hayotimizga tez va chuqur kirib kelmoqda. Globallashuv-bu avvalo hayot sur'atlarining beqiyos darajada tezlashuvi jarayonida, davlatlar o'rtasida turli xil integratsiya va hamkorlikning kuchayishi, zamonaviy axborot texnologiyalari hamda ilm-fan yutuqlarining tezda tarqalishi, xalqlar o'rtasidagi muloqotning yangicha sifat kasb etishi, o'zaro hamkorlik imkoniyatlarining yuzaga kelishi-bu globallashuvning ijobiy ahamiyati, ammo globallashuv jarayonining bugungi yana bir jihati shuki, u yoshlarga mafkuraviy ta'sir o'tkazishning quroliga, har xil siyosiy, g'oyaviy kuchlarning kurash sahnasiga ham aylanib bormoqda. "Bugungi zamonda mafkura poligonlari yadro poligonlaridan ham ko'proq kuchga ega", degan edilar O'zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti Islom Karimov. Shu sabab yoshlar tarbiyasi davlatimizning doimo diqqat markazida bo'lib, bu jarayon O'zbekiston mustaqil bo'lgandan beri uzluksiz davom etmoqda.

Umuman, mamlakatimizda qabul qilingan yoshlarga oid qonunlarning barchasida yoshlarimizning puxta bilim olishi bilan bir qatorda xalqaro maydondagi faolligi va ishtirokini ta'minlash, voyaga yetmaganlarni, boquvchisini yo'qotganlarni, ko'p bolali oilalarni ijtimoiy-iqtisodiy tomondan himoyalash, iqtidorli yoshlarni aniqlash va qo'llab-quvvatlash kabi masalalar doimiy nazorat ostida bo'lmoqda.

https://wordlyknowledge.uz

Yosh yigit va qizlarimiz mustaqil hayotga kirib borishi, yosh oilalarning o‘z o‘rinlarini topa olishida, kishilar o‘rtasida mehr-oqibatning, birodarlikning tarkib topishida mahalla oqsoqollari va nuroniy otaxonlar, onaxonlarning tutgan o‘rinlari muhimligini ta’kidlash lozim. Yoshlar ma’naviy tarbiyasida ota-ona mas’uliyati alohida o‘rin tutadi. Insonning eng sof va pokiza tuyg‘ulari, ilk bor hayot to‘g‘risidagi tushunchalar, dunyoqarashlar, yaxshilik va ezgulik, olijanoblik va mehr-oqibat, or-nomus, andisha kabi inson uchun zarur bo‘lgan muqaddas tushunchalar dastlab oilada qaror topa boshlaydi va so‘ngra jamoaga ko‘chadi.

Mutaxasis va pedagoglarning ilmiy xulosalariga ko‘ra, inson o‘z umri davomida oladigan barcha axborot ma’lumotlarning 70 foizini 5 yoshgacha bo‘lgan davrda olar ekan.

Shunday ekan, farzandlarimizga berayotgan tarbiyamiz donishmandlik uzoqni ko‘ra bilish ertangi kun haqida qayg‘urishga asoslanishi lozim. Bola bamisoli nihol. Unga keragicha e’tibor va tarbiya bermasak u qiyshiq o‘sishi ertaga atrofdagilarning ta’na e’tiroziga sabab bo‘lishi mumkin. Chunki, tarbiya orqali insonlar qismati, taqdiri hal bo‘ladi. Bola tarbiyasi murakkab jarayon hisoblanadi. Tarbiyaning asosiy o‘chog‘i oiladir. Tarbiya faqat ota-onaning shaxsiy ishigina bo‘lib qolmasdan, balki ularning ijtimoiy burchi hamdir. Ma’lumki shaxsning qadri uning jamiyatda tutgan o‘rni bilan belgilanib, ko‘p jihatdan uning tarbiyasiga bog‘liq bo‘ladi. Tabiiyki bolaning ilk tarbiyachisi ota-ona hisoblanadi. Bolalarning oilada tarbiyalash davomida ularga hayot haqidagi, odamlarning yaxshi va yomon xulqlari, jamiyatda bajaradigan ishlari haqidagi dastlabki tasavvurlarni berish lozimdir. Bolalarning oiladagi foydali odatlarni o‘zlashtirishlari hamda hayot tajribalarini orttirishlari ular tarbiyasida ulkan ahamiyatga ega bo‘ladi. Oila mustahkamligini ta’minlovchi omillardan biri farzandlardir. Turmush qurishdan asosiy maqsad ham nasl davomiyligini ta’minlash, zurriyot qoldirish va uning kamolini ko‘rishdan iborat. Oilada ulg‘ayadigan bolaning qanday inson bo‘lib shakllanishi birinchi navbatda ota-onaga bog‘liq. Ular esa ishni avvalo bolaga chiroyli tarbiya berishdan boshlamoqlari kerak. Zero, tarbiya barcha hikmatlarning avvalidir. Har bir inson o‘z farzandini dunyodagi eng namunali ilmli va ma’naviyatli shaxs bo‘lishini orzu qiladi. Shunga erishish yo‘larini axtaradi. Bu yo‘lda to‘g‘anoq bo‘lgan barcha to‘siqlarni yengib o‘tishga intiladi. Ammo ayrim oilalarda bolaning risoladagiday inson bo‘lib yetishuvida tarbiya birinchi vosita ekani e’tibordan chetda qoladi. Bola tarbiyasi o‘ta murakkab va mas’ulyatli shu bilan birga natijasi aniq ish. Bu esa har bir ota-onadan o‘z ustida muntazam ishlashni bolalar tarbiyasiga oid barcha ma’lumotlardan boxabar bo‘lib borishni talab etadi. Farzand tarbiyasi o‘z-o‘zidan bo‘lib ketadigan ish emas. U o‘z ichiga pedogogik ma’naviy axloqiy, tibbiyot, etika, psixologiya kabi sohalarga oid bilimlarni qamrab oladigan murakkab jarayondir. Hozirgi globallashuv davrida yosh ota-onaning bu bilimlarni bilishi, bolaning kelajagi qanday bo‘lishida hal qiluvchi ahamiyatga ega.

Farzand tarbiyasi haqida juda ko‘p tarixiy asarlarda hikmatli so‘zlar uchraydi va ular bola tarbiyasidagi yuzaga keladigan muammoli qulfning “kaliti”dir. Bu borada Rizouddin ibn Faxruddinning “Oila” nomli risolasida, “bola tarbiyasi yomon niyat bilan emas, balki sabr toqat, matonat, mehribonlik, chidamlik, shafqat-u sezgirlik bilan bo‘lishi kerak. Bundan bolani tizginsiz hayvon kabi o‘z holiga tashlab qo‘yish degan gap chiqmaydi. Zarar bilan foydani ayira olmagan yosh go‘dakni nazoratsiz tutish ulug‘ xatolikdir. Balki uni qattiqlik va yumshoqlik o‘rtasida, adolat bilan tarbiya qilmoq kerak.

Fitrat farzand tarbiyasi haqida: “Oiladagi eng og‘ir vazifa tug‘ilgandan keyin farzand tarbiyasidir. Bani Odamning siyosiy, diniy, ijtimoiy inqiloblarining asoslari ana shu ikki so‘z- “Bola tarbiyasidan iborat birikmaga bog‘liq. Bu xalqning harakat qilishi davlatmand bo‘lishi, baxtli bo‘lib izzat hurmat topishi jahongir bo‘lishi zaif bo‘lib xorlikka tushishi faqirlik jamoasini kiyib baxtsizlik yukini tortib e’tibordan qolishi o‘zgalarga tobe, qul va asir bo‘lishi, bolalikdan o‘z ota-onalaridan olgan tarbiyalariga bog‘liq deydi.

https://wordlyknowledge.uz

Tib ilmining sultoni Ibn Sino yosh bolani yaxshi axloqli, jismoniy sog‘lom bo‘lishi uchun tarbiya jarayonida shaxsiy namuna bo‘lish usuli g‘oyat katta ahmiyatga ega ekanligini qayta-qayta uqtirib o‘tadi.

Ibn Sinoning oilaviy tarbiya to‘g‘risidagi fikrlarining chuqur mazmuni va amaliy ahamiyatini uning quyidagi so‘zlaridan bilib olish mumkin. U “Bola xulqini mo‘tadillikda saqlashga alohida e’tibor berish kerak. Bu bolani qattiq g‘azablanish, xafalik, qo‘rqish va uyqusizlikdan saqlash orqali erishiladi. Bolaning xohlagan va foydali narsasini darhol topib berishga tayyor bo‘lishi kerak.

Beruniy o‘zining oilaviy tarbiya haqidagi risolalarida ota-onalar va xushxulq tarbiyachilar obro‘sinig bola tarbiyasidagi ta’sir kuchi haqida ham fikr yurgizadi. Oilada bolaning ko‘z o‘ngida ota-ona o‘z obro‘siga ega bo‘lsa, tarbiya shunchalik samara beradi, deya ta’kidlaydi olim. Obro‘ deyilganda bolalarning ota-onalarini chuqur hurmat qilishlari, ularning talablarini ongli ravishda istak bilan bajarishlari, hamma narsada ularga o‘xshash bo‘lishga intilishlari, maslahatlariga quloq solishlari tushuniladi. Ota-onalarning bolalariga tarbiyaviy ta’sirining bor kuchi obro‘ga asoslanadi. Biroq obro‘ tabiatan berilmaydi sun’iy ravishda yaratilmaydi, qo‘rquv va qo‘rqitish zo‘rlik bilan erishilmaydi, balki ota-onaga nisbatan mehr va oqibatdan kelib chiqadi.

Barkamol shaxs tarbiyasi mana shunday o‘ziga xos murakkab jarayondir. Bu borada biz o‘z nuqtai nazraimizga ko‘ra quydagilarni barkamol shaxsni shakllantirish jarayonidagi eng asosiy fikr mulohazalar deb bildik va buroda o‘z mualliflik takliflarimizni ilgari surmoqchmimiz. Bular quydagilardan iborat:

Birinchidan, barkamol avlod tarbiyasi yo‘lida avvalombor davlat tomonidan siyosiy va iqtisodiy islohotlar jarayonini jadallashtirish va juda katta hajmdagi sarmoya ajratish maqsadga muvofiqdir. Zero “harajatsiz istiqbolga yuz tutmoq nol qiymatga tengdir”.

Ikkinchidan, barkamol avlod ta’lim-tarbiyasi borasida davlat o‘z siyosiy etikasidan kelib chiqib oilani yoki ota-onaning funksiyalarini ma’lum bir indikatorlar asosida mezonlarga solish lozim. Bunda ota-onaga ijtimoiy-iqtisodiy erkinlik berish, bo‘lajaka barkamol shaxs tarbiyasida davlat tomonidan ijtimoiy-iqtisodiy erkinlikning aniq mexanizmlari ishlab chiqilishi lozim.

Uchinchidan, Ta’lim-tarbiya maskanlari to‘liq (davlat va nodavlat) davlat tomonidan ishlab chiqilgan tamoyillarga asolanishi lozim. Bunda ta’lim-tarbiyaning aniq strategiyasi ishilab chiqilsa maqsadga muvofiq bo‘lar edi.

To‘rtinchidan, jamiyatmiz va davlatimiznig bo‘lajaka egalari va avlodalrini vatanparvar, insonparvar, komil inson bo‘lib voyaga yetishida ularga davlat tomonidan albatta iqtidoriga qarib shart-sharoitlar yaratib berish maqsadga muvofiqdir.

Yuqoridagi fikr-mulohazalar va takliflardan kelib chiqib xulosa qilar ekanmiz, ta’lim-tarbiya uzluksiz va muttasildir. Uni o‘z holiga tashlab qo‘yib bo‘lmaydi. Barkamol shaxsni tarbiyalash esa juda og‘ir va murakkab kechadigan jarayondir. Biz hozir diqqat e’tiborimizni tarbiyaga, tarbiyaga va yana tarbiyaga undan keyin ta’limga qaratsak nur ustiga a’lo nur bo‘lar edi.

Foydalangan adabiyotlar ro‘yaxati

1. Rizouddin ibn Faxruddin. Oila. –T:. “Mehnat”, 1991, 12-13 bet.
2. Raximov S. Abu Ali ibn Sino ta’lim tarbiya haqida. –T:. “O‘qituvchi”
3. A.Qodirov, M.Quronov va boshq. “Yosh ota-ona kitobi” 2018
4. A.Qodirov, M.Quronov, “Baxtli bola ma’naviyati”
5. A. Erkaev. Ma’naviyat — millat nishoni. Toshkent, “Ma’naviyat”, 1997.

https://wordlyknowledge.uz